

GLABALASHUV JARAYONLARI VA YOSHLAR MA'NAVIY KAMOLOTIDA TARBIYA MASALALARI

SH.G'.Umirzaqova, ADCHTI, Ingliz tili
nazariy aspektlari kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlar ma'naviy kamolotiga doir O'zbekistonning strategik maqsadi va bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar, glaballashuv jarayonlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar xususida fikrlar aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, qadriyat, falsafa, glaballashuv, yoshlar

Mustaqil O'zbekistonning strategik maqsadi – bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir. Buning uchun har bir O'zbekiston fuqarosi, avvalo, shaxsiy faollik, bilimdonlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik kabi olijanob fazilatlar sohibi bo'lishi lozimki, bu jarayon xalqimiz ma'naviy va ma'rifiy merosi, qadriyatlaridan unumli va samarali foydalanishni taqozo etadi.

Har qanday ma'naviyat, eng avvalo, jamiyatda erishilgan muayyan bilimlar, tajribalarga hamda o'tmish avlodlardan bizgacha yetib kelgan ma'naviy merosga tayanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida ma'naviyat sohasida erishilgan bilimlar va tajribalar undan keyingi avlod uchun tarixiy tajriba, xotira bo'lib xizmat qiladi. Bu tarixiy vorislik atalib, taraqqiyotning turli bosqichlaridagi uzluksizlik va uzviylikni ta'minlaydi, ma'naviyatning ichki rivojlanish qonuni bo'lib yuzaga chiqadi¹.

Bugungi kunda mamlakatimiz xayotining barcha sohalarida ijobiy ma'nodagi keskin o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyo miqyosidagi yangilanish va o'zgarishlar qolaversa globallashuv jarayoni barchamizni yanada tezkor va izchil qarorlar qabul qilishga undamoqda.

Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda milliy va umumbashariy qadriyatlar insoniyat hayotida xar qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero globallashuv sharoitida g'arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan ommaviy madaniyatni targ'ib qilish orqali faoliyatga intilayotgan qora kuchlar mavjudki, ular ijtimoiy ongi shakllanib ulgurmagani, hayotiy tajribalari yetarli bo'lmagan yosh avlodga ta'sir etishga xarakat qiladilar. Shunday ekan xar bir inson xar doimo oilada, ta'lim muassalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yoshlar bilan ishlash tamoyillarini rivojlantirish dolzarb vazifalar sarasiga kiradi.

Yoshlar ma'naviyiv kamoloti jarayonida ularda mafkuraviy immunitet xosil qilish muxim ahamiyat kasb etadi, moxiyatan immunitet so'zi hozirda keng qo'llanilayotgan tushunchadir. Aslida immunitet so'zi biologik tushuncha sifatida

¹ Umarov.E., Abdullaev.M. Ma'naviyat asoslari. – T.: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririya, 2005. - 34 b.

o'simlik yoki tirik organizmning tashqi ta'sirlarga chidamlilik va yashovchanlik ma'nolarini anglatadi. Tarbiyaviy immunitet shaxsning ma'lum ijtimoiy muhit ta'siri, olgan ta'lim va tarbiyasi natijasida unda shakllantirilgan tushuncha, fikr va g'oyalar tizimi ostida faoliyat ko'rsatishida ularning ustivor ahamiyat kasb etishi hamda shaxsning xarakter xususiyatiga aylanganligini ifodalovchi ilmiy pedagogik tushuncha deb qarash fikrimizni oydinlashtiradi. Ana shu tarbiyaviy immunitet shaxsning jamiyatdagi muayyan maqsadlar va ustivor tamoyillar asosida shakllangan dunyoqarashi tizimi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Insonda shakllangan estetik his-tuyg'u va kechinmalar, qarashlar hamda e'tiqod o'ziga xos xarakterni tarkib toptiradi. Bunday mafkura asosida tarbiyalangan shaxs har qanday holatlarda o'zligini yo'qotmaydi va o'zini boshqara oladi.

Bugungi kunda glaballashuv davri va unda kechayotgan jarayonlardan biri sifatida turli axborot vositalarini ta'sirdir. Xususan, internet undagi ijtimoiy tarmoqlar ulardagi turli xil ma'lumotlar suratlar, slaydlar, audiolar va videolar ijtimoiy hayotimiz va extiyojimizda o'z ifodasini topmoqda. Lekin shu bulan birga yashirin salbiy ta'sirlar kishi ongiga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu jarayonlarni to'liq chegaralash imkoniyati yo'q. Ko'rinib turibdiki, yoshlarni salbiy ta'sirlar qurshovidan faqat biz ilgari surayotgan va hozirda o'z isbotini topgan ma'naviy tarbiya masalasiga urg'u berish, insondagi mafkuraviy immuniteti asosi sifatidagi jihatlarni tadqiq qilishdir.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi jarayoni qanchalik maqsadga muvofiq pedagogik jihatdan to'g'ri, sermahsul bo'lishi uni mahorat bilan tashkil etilishi va uyushtirilishiga bog'liqdir. Yosh avlodni aldamchi, buzg'unchi, begona ta'sirlardan saqlash, ularda hayotga yengil-yelpi munosabatda bo'lishlariga yo'l qo'ymaslik, voqelikka ko'r-ko'rona munosabatda bo'lishlarini oldini olish orqali ularda ezgu o'y, fikrlarni shakllantirish, ijtimoiy faol shaxs xususiyatlarini tarkib toptirish orqali yoshlar ma'naviy saviyasini yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi. Yosh avlod shaxsida tarbiyaviy immunitet hosil bo'lishiga erishuv orqali har qanday tashqi ta'sir muammolari o'z yechimini topadi. Bugungi kunda diyorimizda mamlakatimiz taraqqiyoti omili bo'lgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi ustivor yo'nalish sifatida davlat siyosati darajasiga olib chiqilishi va o'tkazilayotgan islohotlar o'z hosilini bermoqda. O'z xalqi, yurt ravnaqi va mustaqil davlatimiz barqarorligi hamda ertasiga ishonch hissi O'zbekistonning taraqqiyot yo'lidan to'g'ri borayotganligi ifodasidir. Zero prezidentimish ta'kidlab o'tganlaridek "Eng katta boylik aql-zakovat va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu bilimsizlikdir!"²

Ayni damda yoshlar hayotidagi muammolarni bartaraf etishga, ularning tafakkurini yanada yuksaltirishga qaratilgan barcha xatti - harakatlar, qabul qilinayotgan dastur va qarorlar ertangi kunimiz manzarasini aniq tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar bilan olib borilayotgan hamkorlik, yangi texnologiyalar asosida yaratilgan zamonaviy jihozlar, investitsiyalar mamlakatimiz yoshlarini intellektual madaniyati yuqori bo'lgan,

² Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021-y 24-b

malakali mutaxassislar va etuk kadrlar etib tarbiyalashni taqozo etadi.

Shu ma'noda bugungi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarga katta e'tibor qaralib, bu borada yurtimizda ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rgatish va ilmiy ishlar sohalarida, ayniqsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalda tadbqiq etish borasida oliy va o'rta-mahsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash yuzasidan olib borilayotgan amaliy ishlar, ushbu ta'lim muassasalarida faoliyag ko'rsatayotgan pedagog-kadrlarning innovasion g'oyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilmoqda.

Insonni va jamiyatni ma'naviy-ahlokiy jihatdan yangilab borish barcha davrlarda real sharoit va extiyojlardan kelib chiqib amalga oshirilgan.

Ma'naviyat bugungi kunda butun insoniyatni muhim muammosiga aylanib ulgurdi. Bugungi globallashuv davrida inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir paytda dunyo mafkuraviy va geosiyosiy maydonlarida gohida oshkora, gohida zimdan borayotgan mafkuraviy kurash avjiga chiqmoqda.

Zero glaballashuv davri jarayonlarida yoshlar ma'naviy tarbiya masalalari asosi kelajagimiz bo'lgan yosh avlod tarbiyasiga bog'liq va bu mamlakat taraqqiyoti omillari sirasiga kiradi. Shunday ekan biz yoshlarni jamiyat va tabiatdagi go'zallikni his ettirish ularda mafkuraviy immunitetti ko'nikmalarini yanada tarkib toptirish orqali ularda glaballashuvning salbiy ta'sirlaridan ma'naviy muxofaza qila olish imkoniyatini shakllantirib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti. 2021-y 24-b

2. Umarov.E., Abdullaev.M. Ma'naviyat asoslari. – T.: Sharq nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririya, 2005. - 34 b.